

UDK: 796.332(575.1)

ZAMONAVIY O'ZBEK JAMIYATIDA FUTBOLNI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Irmatov Dilyor Yunusbekovich

*Farg'ona davlat universiteti sport o'yinlari nazariyasi va uslubiyoti kasedrasi
mustaqil izlanuvchisi*

irmatovdilyor@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy o'zbek jamiyatida futbolni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari ijtimoiy, madaniy va pedagogik jihatdan tahlil etiladi. Futbolning milliy an'analar bilan uyg'unligi, aholi salomatligini mustahkamlash va yoshlar rivojida o'rni yoritilgan. Shuningdek, uning ijtimoiylashuv vositasi sifatidagi ahamiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: futbol rivoji, o'zbek jamiyati, milliy sport an'analari, ijtimoiylashuv, sog'lom turmush tarzi, yoshlar tarbiyasi, jismoniy rivojlanish, o'yin intellekti, sport va ilmfan integratsiyasi, etnoijtimoiy munosabatlar, Paxtakor jamoasi, futbol pedagogikasi, sport psixologiyasi.

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ФУТБОЛА В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В статье рассматриваются особенности развития футбола в современном узбекском обществе с социальной, культурной и педагогической точек зрения. Освещается его роль в укреплении здоровья, развитии молодежи и как средства социализации. Делается вывод о значении футбола как важного социального института.

Ключевые слова: развитие футбола, узбекское общество, национальные спортивные традиции, социализация, здоровый образ жизни, воспитание молодежи, физическое развитие, игровой интеллект, интеграция спорта и науки, этносоциальные отношения, команда «Пактакор», футбольная педагогика, спортивная психология.

SPECIFIC FEATURES OF FOOTBALL DEVELOPMENT IN MODERN UZBEK SOCIETY

Abstract. The article examines the features of football development in modern Uzbek society from social, cultural, and pedagogical perspectives. It highlights its role in public health, youth development, and socialization. The study concludes that football is an important social institution in societal development.

Keywords: football development, Uzbek society, national sports traditions, socialization, healthy lifestyle, youth education, physical development, game intelligence, integration of sports and science, ethnosocial relations, Pakhtakor team, football pedagogy, sports psychology.

KIRISH

Sharq mamlakatlarida qadimdan sportga bo'lgan munosabat va u bilan shug'ullanishga e'tibor yuqori darajada bo'lgan. Xususan, o'zbeklarda qadimdan kurashning bir qator turlari (Turon kurashi, belbog'li kurash va h.k.), ko'pkari, og'ir atletika elementlarini o'zida mujassamlashtirgan tosh ko'tarish bilan bog'liq sport turlari keng rivojlangan.

Milliy sport turlarining aksariyati mavsumiy yoki bayram va sayllarda o'tkazilgan. Sport bilan shug'ullanishni birinchi navbatda, salomatlik uchun muhim hisoblangan bo'lsa, o'z navbatida, sog'lom va baquvvat avlodni kelajak poydevori sifatida ham e'tiborga olgan. Shuning uchun ham oilalarda farzandlarni erkab, *polvon*, *chavandoz*, *botir* deb erkalatgan va ushbu jihat ismlarda ham o'z aksini topgan. "Polvonlar avlodi", "chavandozlar avlodi" kabi tushunchalar ham aynan ma'lum bir sulolani mazkur sport turlariga aloqadorliklari natijasida vujudga kelgan. Bayram sayllarida o'tkazilgan musobaqalarda maydonga chiqqan sportchilar erishgan natijalari orqali o'zlarining ajdodlari va yashayotgan hududlarini sha'nini himoya qilayotganliklarini his etib musobaqalashgan.

Musobaqalar asosan, bozorlarda va aholi ko'p to'planadigan hududlarda o'tkazilgan. Musobaqalar o'tkaziladigan maydon har doim sportsevarlar bilan gavjum bo'lgan. O'zining boy an'alariga ega sport turlari mavjud bo'lishiga qaramay, jahon miqyosida tan olingan sport turlarining kirib kelishi xalqimizning asriy an'alarini boyitishga xizmat qildi.

Futbol qadimiy sport turlari sirasiga kirmasada, bir asrdan ortiq vaqt davomida turli davrlarda o'ziga xos bosqichlarni bosib o'tdi. XX asrning o'rtalaridan boshlab futbol O'zbekistonda birinchi raqamli sport turiga aylandi. Dastavval "Paxtakor" jamoasi mamlakatning bosh jamoasi sifatida faoliyat yuritgan. Mamlakatdagi futbol kayfiyati va rivoji "Paxtakor" jamoasining natijalari orqali talqin qilingan. Murabbiylar tarkibida mahalliy aholi vakillari kam uchrab, ularni asosan, bolalar futbolida uchratish mumkin edi.

Professional futbol jamoalarida mahalliy murabbiylarning ozligini mazkur davrda jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan o'quv yurtlarining kamligi, faoliyat yuritayotganlari ham futbol murabbiylarini tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilmaganligi

bilan izohlash mumkin. Shuning uchun ham o'zbek futboli rus murabbiylari metodi asosida shakllangan. O'zbekiston hududida dastlab tashkil etilgan jamoalar tarkibida turli millat vakillari faoliyat olib borishlariga qaramay, futbol muxlislari stadionlarda ularni qo'llab-quvvatlagan. Turli millat vakillarining bir jamoada va bir maqsad ostida birlashib harakatlanishi jamoaviy sport turlari ichida birinchilardan bo'lib futbolda etnoijtimoiy munosabatlarni shakllanishi va rivojlanishiga zamin yaratdi.

Xususan, "Paxtakor" jamoasining samarali faoliyat yuritgan 1978–1979 yillardagi tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak, rus, ukrain, tatar va koreys millatiga mansub futbolchilar faoliyat yuritgan. Mamlakatimizda 1970 yillargacha stadionlaridagi muxlislar asosan, mahalliy aholi vakillaridan iborat bo'lgan. Keyinchalik stadionlarda o'zbek jamoalarini qo'llab-quvvatlovchilarni turli millat vakillari asta-sekin ko'paya bordi.

Tadqiqotning maqsadi futbol fenomenining shaxs va jamiyatdagi o'rni orqali futbolning jamiyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“futbol” tushunchasiga ilmiy ta'rif berish, genezisi va evolyutsiyasini tadqiq etish asosida uning jamiyat madaniy yuksalishidagi ahamiyatini ochib berish;

zamonaviy jamiyatning ijtimoiy qiyofasini belgilashdagi futbol funksiyalarini asoslash hamda shaxs ijtimoiylashuvida futbolning fenomen sifatidagi ijtimoiy rolini aniqlash;

O'zbekiston ta'lim-tarbiya tizimida futbolni rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy omillarini ochib berish;

futbol fenomenini shaxs va jamiyatga ijtimoiy ta'sirini aniqlash hamda yoshlarda “milliy iftihor”, “milliy g'urur”, “vatanparvarlik” tushunchalarini kamol toptirishning falsafiy mexanizmlarini aniqlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mamlakatimizda futbolning tarixi, rivojlanishi, sport turi sifatidagi ahamiyati, muxlislik, jamiyatning ma'naviy hayotida tutgan o'rni va rolini ochib berish A.Imomxo'jayev E.Yusupov, E.P.Xodjayev, A.Tulenova, A.Niyozov,

A.Yerejepov, Sh.Sultonov, M.Yuldashev, O.Axmedov[1]kabi bir qator sportchi, faylasuf va jurnalist olimlar va ilmiy izlanuvchilar tomonidan tadqiq etilgan.

Xususan, futbolning fenomenologik xususiyatlari, madaniyat shakli sifatida o'rganish, ishqibozlik jamoalari masalalari tadqiq etgan olim Klinton David Godfrey [2], bugungi kunda futbol aqlga asoslagan global fenomen hodisa sifatidagi ahamiyatiga doir tadqiqotlar Kristina Ayzenberg [3] ishlarida ko'rish mumkin, shu bilan birga iqtisodi zaif davlatlarning professional futbolchilari migratsiyasi va davlat iqtisodiyotdagi ulushiga oid izlanishlar Pier Lanfranch va Metyu Teylor [4] tadqiqotlaridan o'rin olgan.

Futbolning jamiyat va shaxs kamoloti muammosi rossiyalik S.Tukmanov, M.Mitrafanov, P.Goryunov, I.Novikova [5], va boshqa tadqiqotchilarning dissertatsiyalarida sotsiologik, huquqiy nuqtai nazardan, Patrik fon Liuven, Y.A.Litinskaya, S.I.Kurilo, S.N.Alyoshina [6] lar ishlarida esa tarixiy nuqtai nazardan o'rganilgan. Muammoga pedagogik yondashuv V.Y.Dayev, Al Ovaydat Raid, A.A.Shamardin[7] singari olimlar tadqiqotlarida amalga oshirilgan.

NATIJA VA MUHOKAMA

Futbolning rivojlanishi bugungi kunda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etishda asosiy o'rinni egallaydi. Bolalar o'rtasida futbol o'yinlarining tashkil etilishi ularning jismoniy rivojlanishi va o'ziga bo'lgan ishonchni ortishida ahamiyatli hisoblanadi. Bugungi kunda kompyuter o'yinlarining keng tarqalganligi va internetdan foydalanishning ommalashuvi qaysidir ma'noda insonlarda kamharakatlilikni keltirib chiqarmoqda. Kamharakatlilik ortidan bolalar va kattalarda turli kasalliklar paydo bo'lish ehtimoli ortib bormoqda. Futbol sport turi aholining deyarli barcha qatlamlari orasida salomatlikni targ'ib etuvchi birinchi raqamli sport turi hisoblanadi.

Bugungi kun futbolchilari bir paytning o'zida bir nechta vazifalarni bajarish rejimi va kuchli ruhiy bosim ostida to'g'ri qaror qabul qilishlari ularning ilmga asoslangan zamonaviy dasturlarda o'z qobiliyatlarini namoyish etganliklarini ko'rsatadi. O'yin davomida murabbiy tomonidan turli, bir-birini takrorlamaydigan geometrik chizmalarni ko'rsatib shu chizmalar asosida harakatlanishlarini talab qiladi. Aynan mana shunday paytda futbolchidan geometrik chizmalarni tezda

tushunib olib, maydonda chizmalarga asoslangan samarali harakatlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi.

Monreal (Kanada) universiteti professori Joselin Fober jamiyatdagi ijro etish funksiyalari o'yin intellekti bilan o'zaro bog'liqligi, professional futbolchilar tez harakatlanishi va kuchli jismoniy yuklamalarga qaramay, qisqa vaqt mobaynida bir nechta ma'lumotlarni qayta ishlay olishlarini ta'kidlagan.

“Jamiyatning turli sohalarida faoliyat boshlayotgan va katta maqsadlar sari intilayotgan insonlarning muvaffaqiyat tomon dadil borishlarida asosiy omil shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchining qay darajada ekanligi hal qiluvchi ahamiyatga ega” [8]. Jahon miqyosida eng ko'p muvaffaqiyatga erishgan Germaniya futbolidan juda ko'plab mamlakatlar andoza olishga intilganlar. Nemis futboli dasturi asosida o'zlarining milliy dasturlarini ishlab chiqib muvaffaqiyatga erishgan davlatlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. “Nemis futbolining yuqori samaradorligida juda ko'p jihatlarni sanab o'tish mumkin. Lekin, akademiyalarimizda yosh futbolchilarni o'ziga bo'lgan ishonchni orttirish yo'lida ishlab chiqqan dasturlarimiz har doim o'zini oqlab kelmoqda” [9].

Ko'pchilik mutaxassislar nemis futboli muvaffaqiyatlarida asosiy omil mentalitet ekanini e'tirof etadilar. Mentalitetning ma'lum darajadagi roli mavjudligini rad etmagan holda aytish mumkinki, muvaffaqiyatdagi asosiy o'rinni ishlab chiqilgan to'g'ri dastur va uzoq yillik bir-birini to'ldiruvchi tizim egallaydi. Agar barcha g'alabalar ostida millat omili bo'lsa, deyarli hech qanday muvaffaqiyat qayd etmagan Avstriya terma jamoasi asosini ham nemis millati vakillari tashkil etishini alohida qayd etish mumkin. Zamonaviy futbolning deyarli barcha davlatlarda ilm-fan bilan integratsiyalashuvi davom etmoqda. Shuning uchun xorijda faoliyat olib boruvchi futbolchilarning yetishtirish tizimi va ularning milliy futbol targ'ibotidagi rolini oshirish, futbolchilarda xorijiy tillarni o'rganishning samarali tizimini joriy etish davr talabiga aylanib bormoqda.

Hozirda “zamonaviy futbolning tarbiyaviy ahamiyati” iborasiga ko'p bora duch kelinadi. Zamonaviy o'zbek futboli jamiyatning ma'naviy-tarbiyaviy dunyosiga qanday ta'sir etayotganligi va undagi salohiyatning yuqoriligi hamda jamiyatda uning samaradorligidagi kamchiliklarning sabablari, faoliyati yakunlangan

futbolchilarning jamiyat hayotidagi rolining pastligi va ularning rolini oshirish bo'yicha maxsus dasturlar ishlab chiqishni yo'lga qo'yish zarur.

XULOSA

Intellektual futbol har bir futbolchining jamoa tarkibida ishlash salohiyati va murabbiy tomonidan berilgan topshiriqlarni mohiyatan anglay olish qobiliyatidir. Futbolchilar maydonda shunchaki to'p tepish bilan cheklanmasdan ilm-fan va sportning integratsiyalashuvini amalda namoyish etadi.

XX asr o'rtalaridan boshlab futbol O'zbekistonda birinchi raqamli sport turiga aylandi. Dastavval "Paxtakor" jamoasi mamlakatning bosh jamoasi sifatida faoliyat yuritgan. Mamlakatdagi futbol kayfiyati va rivoji "Paxtakor" jamoasining natijalari orqali talqin qilingan. Turli millat vakillarining bir jamoa va bir maqsad ostida birlashib harakatlanishi jamoaviy sport turlari ichida birinchilardan bo'lib futbolda etnoijtimoiy munosabatlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga zamin yaratdi. "Paxtakor" jamoasining samarali faoliyat yuritgan 1978 – 1979 yillardagi tarkibiga nazar tashlansa, rus, ukrain, tatar va koreys millatiga mansub futbolchilar faoliyat yuritganligi ko'rinadi. Sergey Pokatilov, Sergey Strashnenko, Aleksandr Yanovskiy, Olimjon Ashirov, Sergey Bashkirov, Mixail Bondarev, Valeriy Glushakov, Gennadiy Denisov, Yuriy Zagumennix, Nikolay Kulikov, Anatoliy Mogilniy, Nizom Nortojev, Ahmadjon Ubaydullaev, Vyacheslav Shirin, Vladimir Enns, Ravil Agishev, Vyacheslav Kim, Vladimir Sabirov, Rinat Fayruzov, Turaberdi Shaymardanov, Andrey Yakubik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Имомхўжаев А. Футбол – қувончим, дардим, фахрим: Монография. Тошкент: Шарқ, 1996. 205 б.; Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент: Университет, 1998. 38 б.; Ходжаев П., Туленова А., Ниёзов А., Ережепов А. Футбол сабоқлари. Тошкент. 2013. 155 б.; Султонов Ш. У. Футбол ўйининг пайдо бўлиш ва ривожланиш тарихи. Тошкент. 2014. 77 б.; Юлдашев М. (М. Шукурзода). Ўзбек футболу, кеча, бугун, эртага. Тошкент: Шарқ пресс, 2015. 158 б.; Аҳмедов О. Орзунинг шонли йўли-Тошкент: Янги китоб, 2021. –Б. 150.
2. Clinton David Godfrey. Attitudes Towards Education in a Professional Football Academy: The Scholars' Perspective. University of Central Lancashire. 2017. 249 p.
3. Christiane Eisenberg(Hg.). Fußball, soccer, calcio. Ein eng-lischer Sport auf seinem Weg um die Welt.München, 1997.

4. Pierre Lanfranchi, Matthew Taylor. Moving with the Ball. The Migration of Professional Footballers. Oxford, 2001.
5. С. Тукманов Особенности труда правового статуса профессионального футболиста. Дисс. Автореферат. Москва. 2007; М.Митрафанов. Управление профессиональными футбольными клубами. Дисс.. автореф... Санкт-Петербург. 2011; П. Горюнов. Формальные и неформальные структуры в среде футбольных болельщиков Санкт-Петербурга. Дисс.. автореф... Санкт-Петербург. 2015; И.Новикова. Дворовый футбол как фактор формирования социального капитала подростков в условиях современного города. Дисс.. автореф. Саратов. 2010.
6. Патрик фон Лиувен. Философия футбола. Киев: Издать книгу, 2022. 1360 с. Е.А. Литинская. Аксиология спорта высших достижений в современном обществе. Дисс.. автореф.. Москва. 2013; С.И. Курило. Социально-философская концепция международного спорта. Дисс... автореф... Нижний Новгород. 2000; С.Н. Алёшина. Актуализация возможностей человека в современном спорте: социально- философские аспекты. Дисс... автореф. – Таганрог. 2008.
7. В.Е. Даев. Оптимизация спортивного отбора и ориентации футболистов по игровым амплуа на этапе углубленной специализации. Дисс.. автореф... Махаловка. 2007; Аль Овайдат Раид. Комплектование игровых линий в детско-юношеских футбольных командах на основе комплексной оценки подготовленности спортсменов. Дисс.. автореф.. Волгоград. 1999; А.А. Шамардин. Целевая функциональная подготовка юных футболистов. Дисс.. автореф.. Волгоград. 2009.
8. Abraham H. Maslow. Motivation and Personality. – New York: Harper & Row, 1954. – P. 82.
9. Hannah J. Fudball in England und Deutschland von 1961 bis 2000.... – P. 178.